

SUN'IY INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING O'ZARO NISBATI

Zokirov Jahongir Shuhrat o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti intellektual mulk va axborot
texnologiyalari huquqi yo'nalishi magistranti
E-mail: zokirovjahongir608@gmail.com

ANNOTATSIYA

O'tgan asr texnologiya, ilm-fandagi va sun'iy intellektning yaratilishi kabi misli ko'rilmagan kashfiyotlar bilan alohida xarakterga ega. Yaqin yillar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt jamiyki internet tarmog'ida mavjud bo'lgan ma'lumotlar va ko'rsatmalar asosida o'zi mustaqil tarzda ixtirolar qilmoqda, asarlar yozmoqda, hatto tasviriy san'at asarlarini yaratmoqda. Basharti, intellektual mulk huquqi bironing intellektual natijalarini (mehnati) uning roziligisiz yoki ruxsatisiz boshqasi tomonidan foydalanilmasligini yoki tijoratlashtirmasligini kafolatlaydi. Biroq, sun'iy intellekt inson emasligi va aslida insonning g'oyasi bo'lganligi sababli, intellectual mulk huquqi va sun'iy intellekt sohasidagi bahs tobora kuchayib bormoqda. Dunyo hamjamiyati bahs-munozaralariga ko'ra, sun'iy intellekt o'z asarlari va ixtirolariga mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini olishi mumkinmi degan savol tug'ilmoqda. Maqola sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan intellectual mulk huquqi obyektlarining huquqiy maqomini, qonunchilik va amalyotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tafovutni hamda ulardan foydalanish natijasida olinadigan foydalar haqida so'z yuritadi. Xulosada sun'iy intellekt haqidagi qoidalarni yaratish yuzasidan tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, intellectual mulk huquqi, mualliflik huquqi, ixtiroga bo'lgan huquq, muallif, huquq egasi.

INTERSECTION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND INTELLECTUAL PROPERTY LAW

ABSTRACT

The last century is characterized by unprecedented discoveries in technology, science and the creation of artificial intelligence. The experience of recent years shows that artificial intelligence independently invents, writes works, and even creates works of visual art based on information and instructions available on the internet. At the same time, intellectual property rights guarantee that one's intellectual results (work)

cannot be used or commercialized by another without his consent or permission. However, since artificial intelligence is not a human being and is actually a human idea, the dispute over intellectual property rights and artificial intelligence is becoming more and more intense. According to the debates of the world community, the question arises whether artificial intelligence can obtain copyright or inventive rights for its works and inventions. The article talks about the legal status of objects of intellectual property rights created by artificial intelligence, possible differences between legislation and practice, and the benefits of their use. In the conclusion, recommendations are made regarding the creation of rules about artificial intelligence.

Keywords: artificial intelligence, intellectual property, invention, ownership, authorship, rights.

KIRISH

Yigirmanchi asrning oxirlarida ilm-fan va texnologiyadagi qilingan ixtirolar natijasida texnika-injenering sohasida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Doimiy ravishda yangi kashfiyotlar qilinib kelinmoqda yoki mavjudlari takomillashtirilmoqda. Yaqin yillargacha yaratuvchanlik va ixtirochilik xislatlari faqatgina insonga xos edi. Biroq, rivojlangan texnologiya – sun'iy intellektning paydo bo'lishi ushbu holatni keskin o'zgartirdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu bois, hozirgi kunda sun'iy intellekt ham ixtiro qilish, mustaqil ravishda qaror qabul qilish va san'at, adabiyot asarlarini yaratish kabi qobiliyatga ega ekanligi hech kimga sir emas.

Sun'iy intellekt texnik ixtirolarni yoki ijodiy ishlarni yaratishda foydalanilganda mualliflik huquqi yuzaga keladi. Odatda yangi texnik yechimlar uchun patentlar beriladi va original ijodiy ishlar uchun mualliflik huquqi mavjudligi tan olinadi. Iqtisodiyotimizning deyarli barcha tarmoqlariga sun'iy intellekt texnologiyalari kirib kelganligi sababli, ushbu texnologiyalar tobora ko'proq ixtirochilik va ijodiy faoliyatga ta'sir qilmoqda.

Intellektual mulk huquqlari ixtirochilik yoki ijodiy natijalarga qaratilgan faoliyatni rag'batlantiradi va mukofotlaydi, chunki jamiyat ixtirolar va ijodiy ishlardan foyda oladi. Ammo sun'iy intellekt texnologiyasi natijasida yaratilgan intellektual mulk huquqi obyektlari uchun ularni rag'batlantirish qoidalari aniq qilib belgilanmagan. Insonlar esa o'zlari yaratgan ishlari uchun haq olishmasa, ilmiy ishlarni davom etdirmasliklari yoki omma e'tiboriga yetkazmasligi mumkin.

Hozirga kelib, sun'iy intellektni yaratish imkoniyatlari bilan bir qatorda, u bilan bog'liq ko'plab muammolar mavjud. Albatta, sun'iy intellektning rivojlanishi robototexnikaning rivojlanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq sun'iy intellekt va robotlar faoliyati bilan bogliq munosabatlar qay darajada huquqiy jihatdan tartibga

solinishi, qolaversa, sun'iy intellekt va sun'iy intellektga asoslangan robotlarning javobgarlik masalalari hanuzgacha bahs va munozaralarga sabab bo'lmoqda¹.

Jeremy Cubert and Richard Bonlarning ta'kidlashicha, sun'iy intellekt yoki mustaqil qaror qabul qiloladigan texnologiya vositalari intellectual mulk huquqiga murakkab muammolarni olib kelmoqda².

Butunjahon intellectual mulk tashkiloti tomonidan chop etilgan axborotnomaga ko'ra, 2019-yilda deyarli 340 000 ta sun'iy intellekt yordamida yaratilgan ixtirolarga patent berilgan. Bu patentlarning yarimiga teng bo'lgan miqdori 2013 va 2018-yillarda berilgan bo'lib, bu raqamlar ushbu sohadagi rivojlanishni ko'rsatadi³.

Ushbu holatlardan savol tug'iladiki, sun'iy intellekt natijasida yaratilgan intellektual mulk huquqi obyektlar qanday tartibda huquqiy muhoza qilinadi? Ushbu obyektlar tijoratlashtirilganda yoki boshqacha tartibda foydalanilganda olinishi mumkin bo'lgan haq kimga tegishli bo'ladi? Agarda sun'iy intellekt boshqa shaxslarning intellektual mulk huquqlarini buzganda kim javobgar bo'ladi? Quyida bu haqida batafsil fikr yuritiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma'lumki, sun'iy intellekt texnologiyalari yangi materiallarni loyihalash, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, yangi dori vositalarini yaratish va boshqa jarayonlar uchun ishlatilib kelinmoqda. Shu bilan birga, sun'iy intellekt intellektual mulk huquqlarini ro'yxatdan o'tkazish, boshqarish va amalga oshirish bilan bog'liq jarayonlarda tobora ko'proq foydalanilmoqda. Vakolatli davlat tashkilotlari arizalarni ixtironing texnik sohasi yoki tovar belgisi turiga qarab tasniflash, belgi qo'llaniladigan tovarlar yoki xizmatlarni tasniflash, adabiyot yoki san'at asarlarini tarjima qilish, oldingi adabiyot va san'at asarlarini qidirish yoki rasmiyatchilik tekshiruvlarini o'tkazish uchun eng qulay vositalardan biri bo'lib kelmoqda⁴.

Umuman olganda sun'iy intellektga yagona ta'rif mavjud emas. Soha mutaxasislari bu bo'yicha o'z qarashlarini ilgari surib, sun'iy intellekt inson aqli orqali bajariladigan vazifa va ishlarni avtomatik hamda mustaqil tarzda bajaruvchi texnologiyadir⁵. Bu ta'rif asosan vazifalarni avtomatik bajaruvchi texnologiyaga

¹ Бозоров С. Sun'iy intellekt javobgarligining axloqiy va huquqiy taomillari //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 48-56.

² Jeremy Cubert and Richard Bone, 'The law of intellectual property created by artificial intelligence', in Barfield and Pagallo (n 3) 415.

³ WIPO, 'WIPO Technology Trends 2019: Artificial Intelligence' (Geneva 2019) 13.

⁴ Anke Moerland and Conrado Freitas, 'Artificial Intelligence and Trademark Assessment' in Jyh-An Lee, Reto Hilty, and Kung-Chung Liu, Artificial Intelligence and Intellectual Property (OUP 2021); WIPO, 'WIPO Index of AI initiatives in IP offices' (2021) www.wipo.int/about-ip/en/artificial_intelligence/search.jsp accessed 23/02/2022.

⁵ Artificial Intelligence, ENG. OXFORD LIVING DICTIONARIES,

https://en.oxforddictionaries.com/definition/artificial_intelligence [<https://perma.cc/WF9V-YM7C>] (last visited Feb. 27, 2019); see STUART J. RUSSELL & PETER NORVIG, ARTIFICIAL INTELLIGENCE: A MODERN APPROACH 1 (3rd ed. 2010).

qaratiladi. Sun'iy intellekt muayyan bir faoliyatni amalga oshirganida inson aqliga o'xshash aqliy funksiyalarni amalga oshiradi, ya'ni o'zi mustaqil ravishda qarorlar qabul qiladi, hatto asar, tasviy san'at asarlari, musiqa va bemorlarga tashxislar qo'yishi mumkin.

Misol uchun, JAMA Internal Medicine jurnalida chop etilgan tadqiqotga ko'ra, tibbiy maslahatlar sohasida ChatGPT professional shifokorlarni ortda qoldirib, "batafsilroq va chin ko'ngildan" ko'rsatma bergan¹.

Biroq dunyo hamjamiyatini tashvishga solayotgan holat shuki, sun'iy intellektning tashkiliy huquqiy shakli qanday? U jismoniy shaxs sifatida ijtimoiy munosabatga kirishadimi yoki yuridik shaxs sifatida?

Ba'zi xorijlik olimlar, sun'iy intellektga nisbatan hayvonlarga oid qoidalarni qo'llash takliflarini ilgari suradilar². Milliy qonunchiligimizda, xususan Fuqarolik kodeksining 93-moddasida qonunchilikda boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, mol-mulk to'g'risidagi umumiy qoidalar hayvonlarga nisbatan ham qo'llaniladi, deb belgilangan. Shuningdek, mazkur kodeksning 1002-moddasiga asosan uy hayvoni tomonidan yetkazilgan zarar uchun uning egasi yoki hayvonning egaligi va foydalanishida umumiy asosda javobgar bo'lgan shaxs mas'ul hisoblanadi deb ko'rsatilgan.

Boshqa guruh olimlarining talqiniga ko'ra, sun'iy intellekt faoliyatiga yuridik shaxslar faoliyatini tartibga soluvchi qoidalarga o'xshash qoidalarni qo'llash nisbatan samaraliroq bo'ladi³. Bu mantiqan to'g'ri, chunki yuridik shaxs sun'iy ravishda yaratilgan qonun subyekti⁴, robotlar ham shunday maqomga ega bo'lgan shaxslar sifatida tan olinishi mumkin.

Sun'iy intellekt texnik tuzilishiga qarab quyidagi uch elementlarni o'z ichiga qamrab oladi:

Birinchidan, model arxitekturasi dasturchi tomonidan o'rnatiladi va u orqali rivojlantiriladi;

Ikkinchidan, jarayon algoritmlar orqali amalga oshiriladi;

Uchinchidan, doimiy ravishda dasturiy ta'minot berib turiladi⁵.

¹ Ayers JW, Poliak A, Dredze M, et al. Comparing Physician and Artificial Intelligence Chatbot Responses to Patient Questions Posted to a Public Social Media Forum. JAMA Intern Med. Published online April 28, 2023. doi:10.1001/jamainternmed.2023.1838

² Бозоров С. Sun'iy intellekt javobgarligining axloqiy va huquqiy taomillari //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 48-56.

³ Arkhipov, V., Naumov, V. – P. 164.

⁴ Winkler A. We the Corporations: How American Businesses Won Their Civil Rights. Liverlight, 2018. See a description here: [Ошибка! Недопустимый объект гиперссылки.](#)

⁵ Drex1 (n 17) 4. https://www.jipitec.eu/issues/jipitec-8-4-2017/4636/JIPITEC_8_4_2017_257_Drex1

Sun'iy intellekt intellektual mulk huquqi obyektlarini deyarli barcha turini yaratishga qodir. Dastlab mualliflik huquqi obyektlari bilan o'zaro kesishmasiga to'xtalamiz.

Robot rassomlar uzoq vaqtdan beri turli xil ijodiy ishlarga jalb qilingan. 1970-yillardan boshlab kompyuterlar san'at asarlarini ishlab chiqarmoqdalar va bu harakatlar bugungi kunda ham davom etmoqda. Ushbu kompyuter tomonidan yaratilgan san'at asarlarining aksariyati dasturchining ijodiy hissasiga juda bog'liq bo'lib, kompyuter ko'pi bilan cho'tka yoki matoga o'xshash asbob yoki asboblardan tizimidan iborat edi.

Ammo bugungi kunda biz texnologik inqilob arafasida turibmiz, bu bizdan kompyuterlar va ijodiy jarayon o'rtasidagi o'zaro ta'sirni qayta ko'rib chiqishni talab qilishi mumkin. Ushbu inqilob inson tomonidan maxsus dasturlashtirilmasdan o'rganishga qodir bo'lgan avtonom tizimlarni ishlab chiqaradigan sun'iy intellektning bir qismi bo'lgan mashinani o'rganish dasturining jadal rivojlanishi bilan asoslanadi¹.

Misol uchun, Parijda joylashgan Sony kompaniyasi birinchi marta sun'iy intellekt "Daddy's car" deb nomlanuvchi qo'shiqni ijro etilishiga muvaffaq bo'ladilar².

Bundan tashqari, 2017-yildan boshlab Google kompaniyasi ham kunlik yangiliklar haqida maqola va gazetalar yozadigan sun'iy intellektni moliyalashtirishni boshlagan. Ko'p o'tmay, Buyuk Britaniya va Irlandiyadagi gazeta asotsatsiyasi ushbu turdagi maqolalar uchun €706,000 (£621,000) miqdorda pul yutib olganligini ma'lum qiladi³.

O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunida barcha turdagi EHM uchun dasturlar, shu jumladan har qanday dasturlash tilida va har qanday shaklda, chunonchi boshlang'ich matn hamda obyekt kodida ifodalanishi mumkin bo'lgan amaliy dasturlar va operatsiya tizimlari mualliflik huquqi obyektiga kirishi va himoya qilinishi⁴ belgilangan. Biroq, yuqorida ta'kidlaganimizdek, suniy intellekt EHM uchun dastur yoki kodlangan operatsiyalar tizimidan farq qiladi. U xuddi inson singari mustaqil tarzda harakat qilishi mumkin.

Mazkur qonunning 3-moddasiga binoan ijodiy mehnati bilan asar yaratgan **jismoniy shaxs** muallif bo'la olishi mumkinligi belgilangan. Xuddi shunday Germaniya qonunchiligiga binoan ham faqatgina inson muallif bo'lishi mumkinligi

¹ https://www.wipo.int/wipo_magazine/en/2017/05/article_0003.html

² The first pop song ever written by artificial intelligence is pretty good, actually. <https://qz.com/790523/daddys-car-the-first-song-ever-written-by-artificial-intelligence-is-actually-pretty-good>

³ Julia Gregory, Press Association Wins Google Grant to Run News Service Written by Computers (6 July. 2017) available at accessed 3rd October, 2021.

⁴ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 21.08.2021-y., 03/21/709/0808-son <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>

ko'rsatilgan¹. Sun'iy intellekt esa bugungi kunda jismoniy shaxs sifatida huquqiy maqomga ega emas.

Fikrimizcha, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlarga mualliflik huquqini berish hech qachon maxsus norma bilan taqiqlanmagan. Biroq, ko'plab mamlakatlarning qonunlari inson tomonidan yaratilmagan intellekt mahsulini mualliflik huquqi sifatida himoya qilish mumkin emasligi to'g'risidagi qoidalar mavjud. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida Mualliflik huquqi idorasi "Asar inson tomonidan yaratilgan bo'lsa, asl mualliflik asarini ro'yxatdan o'tkazishi mumkinligini belgilaydi". Bu pozitsiya sud amaliyotidan kelib chiqqan. Masalan, Feist nashrlari Qishloq telefon xizmati kompaniyasi (1991) mualliflik huquqi to'g'risidagi qonun faqat "aqlning ijodiy faoliyat natijasida yaratilgan" intellektual mehnat mevalarini "himoya qilishini belgilaydi"². Xuddi shunday, yaqinda Avstraliya amalyotida (Acohs Pty MCHJ va Ucorp Pty MCHJ), sud kompyuterning aralashuvi bilan yaratilgan ishni mualliflik huquqi bilan himoya qila olmasligi haqida qaror qabul qilgan, chunki u inson tomonidan ishlab chiqarilmagan deya izohlangan³.

Ushbu amalyotdan farqli o'laroq, ba'zi mamlakatlarda, jumladan Gon Kong, Hindiston, Irlandiya, Yangi Zelandiya va Buyuk Britaniyada sun'iy intellekt yaratgan asarlarga mualliflik huquqini uni yaratgan dasturchiga berish lozim deyiladi. Bu yondashuv Buyuk Britaniya mualliflik huquqi, sanoat namunalari va patent huquqlari to'g'risidagi 1988-yilda qabul qilingan qonunining 9-moddasi 3-bandida shunday belgilangan⁴:

"Kompyuterda yaratilgan adabiy, dramatik, musiqiy yoki badiiy asarlarga nisbatan muallif asarni yaratish uchun zarur bo'lgan tadbirlarni amalga oshiradigan shaxs sifatida tan olinadi."

Bundan ma'lum bo'ladiki, har qanday sun'iy intellekt natijasida yaratilgan mualliflik huquqi obyektlari uni yaratgan dasturchiga (programmer) tegishlidir.

Biroq bu qonun ishlab chiqariladigan ishni tartibga soluvchi shaxs kim deb e'tirof etilishi haqidagi savolni ochiq qoldiradi. Qonun dasturchi yoki ushbu dastur foydalanuvchisining hissasini tan olishi kerakmi? Odatga ko'ra, bu mualliflik huquqini qalam yaratuvchiga yoki yozuvchiga berish kerakligini so'rashga o'xshaydi. Xo'sh, nima uchun mavjud noaniqlik raqamli dunyoda muammoli bo'lishi mumkin? Ushbu holatni aniqlashtirish uchun Microsoft Word dasturini misol sifatida ko'rishimiz mumkin. Microsoft kompaniyasi Word dasturini ishlab chiqdi, ammo ushbu dastur

¹ copyright law. <https://dejure.org/gesetze/UrhG/8.html>

² Feist Publications, Inc. v. Rural Tel. Serv. Co., 499 U.S. 340 (1991).
<https://supreme.justia.com/cases/federal/us/499/340/#344>

³ Acohs Pty Ltd v Ucorp Pty Ltd [2012] FCAFC 16 (2 March 2012). <http://www8.austlii.edu.au/cgi-bin/viewdoc/au/cases/cth/FCAFC/2012/16.html>

⁴ UK copyright law, section 9(3) of the Copyright, Designs and Patents Act (CDPA).
<https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1988/48/section/9>

yordamida ishlab chiqarilgan har bir san'at va adabiyot asariga mualliflik huquqini oladi deganimi? Tabiiyki, mualliflik huquqi dasturdan foydalanuvchiga, ya'ni o'z asarini yaratish uchun dasturdan foydalangan muallifga tegishli. Ammo asar yaratishga qodir bo'lgan sun'iy intellekt haqida gap ketganda, foydalanuvchining ijodiy jarayonga qo'shgan hissasi shunchaki tugmani bosish bilan chegaralanadi, xolos. Demoqchimizki, biror shaxs Word dasturidan foydalangan holda asar yaratsa, undan jismoniy va aqliy harakat talab qilinadi va insonning aqliy salohiyati natijasida muayyan natijaga erishiladi. Sun'iy intellektda esa foydalanuvchi mavzu nomini yozib, shunchaki tugmani bosadi va tayyor adabiy asarga ega bo'ladi. Albatta, bu asar sun'iy intellektning izlanishi natijasida amalga oshiriladi.

Sun'iy intellektning ishlashini amalga oshirgan shaxsga mualliflik huquqini berish eng oqilona yondashuv bo'lib tuyuladi, xuddi Buyuk Britaniyaning qonunchiligi singari. Bunday yondashuv kompaniyalarning texnologiyaga sarmoya kiritishni davom ettirishini ta'minlaydi, ular o'z investitsiyalaridan daromad olishlarini rag'batlantiradi. Ikkinchi fikr esa sun'iy intellektlarga insonlarning maqomi va huquqlari berilishi kerak yoki yo'qligi haqida, ammo bu hozirgi kunda ham munozarali holat bo'lib kelmoqda.

Patent huquqi va sun'iy intellekt o'rtasidagi o'zaro ta'sir bugungi texnologik dunyoda ortib bormoqda. Ushbu maqolaning oldingi qismida ko'rsatilgandek, sun'iy intellekt asosiy ishlab chiqarish jarayonini soddalashtirish va birinchi navbatda inson ishchi kuchini kamaytirish uchun keng qo'llanilmoqda. Bir qarashda, ushbu texnologiya tizimi oddiy kalkulyatorlarga va shunga o'xshash gadjetlar tarzida ishlaydi.

Bugungi kunda ushbu tizim muayyan bir dastur asosida vazifalarni bajarish uchun jihozlangan bo'lib, ularga biror narsa ixtiro qilish imkoniyatini yaratadi. Bu texnologik nuqtai nazardan ulkan rivojlanish bo'lsa-da, huquqiy nazariyadan, ya'ni patent qonunchiligi nuqtai nazaridan murakkab va qiyin savollarni tug'diradi.

Qonunchilikka ko'ra, ixtiro foydalanuvchilarga ma'lum bir harakatni amalga oshirishning yangi usulini, shu jumladan mavjud texnik muammoning yangi yechimini taklif qiladigan har qanday mahsulot yoki jarayonni qamrab olishi tushuniladi¹. Shu bois, patent sanoat mulki obyektlariga nisbatan eksklyuziv huquqlarni ta'minlaydi. Bunday huquq egasi patentlangan ixtirodan o'z xohishiga ko'ra foydalanish imkoniga ega bo'lib, boshqa shaxslar tomonidan sotish yoki patent egasining ruxsatisiz ishlatishdan mahrum qilish huquqiga ega. Tom ma'noda aytish mumkinki, bunday holatda kafolatlangan huquq asl ixtirochi manfaati uchun monopoliyani yaratishni

¹ Patents, WORLD INTELLECTUAL PROPERTY ORGANIZATION, [http:// www.wipo.int/patents/en/](http://www.wipo.int/patents/en/)

qonuniylashtiradi¹, albatta, qonunchilik doirasida beriladigan huquqiy muhofaza davrida².

Yuqorida ta'kidlanganidek, sun'iy intellekt funksiyalarni bajarish va hatto ixtirolarni yaratish uchun jihozlangan bo'lib, bu odatda inson tomonidan bajariladigan aqliy jarayonlarni qo'llash natijasida yuzaga keladi. Natijada, ushbu mashinalar patentga layoqatli ixtirolar sifatida baholanishi mumkin bo'lgan obyektlarni ishlab chiqarmoqda³.

O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi qonunida ixtironing subyektiga aniq ta'rif berilmagan. Biroq unda ixtiro muallifi deb ko'rsatib o'tilgan. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuniga muvofiq ijodiy mehnati bilan asar yaratgan **jismoniy shaxs** muallif bo'la olishi mumkin, ya'ni ixtiro ham faqatgina inson tomonidan amalga amalga oshirilganda patent talablariga mos hisoblanib, huquqiy muhofaza berilishi mumkin. Xorijiy mamlakatlar qonunchiligida, xususan Amerika Qo'shma Shtatlarining Patent to'g'risidagi qonunida ham "ixtirochi" inson yoki insonlar jamoasi bo'lolishi mumkinligi belgilangan⁴.

Ammo, amalyotda hozirgi kunga qadar bu turdagi ixtirolarga patent olganlik holati mavjud. 2019-yilda "Imagination Engines" deb nomlangan kompaniyaning bosh direktori Stiven Taler nomidan patent mutaxasislari ikkita sanoat mulki obyekti — **ogohlantiruvchi chiroq va oziq—ovqat idishi** uchun patent olishgan⁵.

Unga ko'ra, talaboma ilovalarda ixtirochi etib Dabus deb nomlanuvchi sun'iy intellekt ko'rsatilgan. Taler Dabusni yaratgan bo'lishi mumkin, ammo u chiroqlar yoki oziq-ovqat idishlarini yaratish bo'yicha ishlarni olib bormagan va g'oyalarni o'zi ishlab chiqarmagan. Shu sababli, patent mutaxasislari patent olishga harakat qilishadi.

Dastlab, Amerika patent va savdo belgilari tashkiloti (USPTO)ga talaboma topshiriladi. Biroq, Amerika qonunchiligiga binoan ixtirochi faqat inson bo'lishi lozimligi sababli ariza rad etiladi va bu qaror ustidan ham birinchi instansiya, ham apellyatsiya sudida mazkur talabnomani qanoatlanrish rad etiladi⁶. Shuningdek, Buyuk

¹ Patent Protection – UNHinnovation, UNIVERSITY OF NEW HAMPSHIRE, <http://innovation.unh.edu/patent-protection>.

² "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi qonun 5-moddasi, <https://lex.uz/docs/-76671>

³ Liza Vertinsky & Todd M. Rice, Thinking about Thinking Machines: Implications for Machine Inventors For Patent Law, B. U. J SCI. & TECH L. 82 (2002), <http://www.bu.edu/law/journals-archive/scitech/volume82/vertinsky&rice.pdf>.

⁴ Consolidated Patent Laws, § 100 (f), U.S.C 35, https://www.uspto.gov/web/offices/pac/mpep/consolidated_laws.pdf.

⁵ Angela Chena. Can an AI be an inventor? Not yet. <https://www.technologyreview.com/2020/01/08/102298/ai-inventor-patent-dabus-intellectual-property-uk-european-patent-office-law/>

⁶ Asid MOHAMAD, individually and for the Estate of Azzam Rahim, Deceased, et al., Petitioners v. PALESTINIAN AUTHORITY et al. https://scholar.google.com/scholar_case?case=8123691441658588112

Britaniya¹ va Yevropa patent idoralari² sanoat mulki obyektlarini patentlarga loyiq deb hisoblashadi, ammo ikkala patent idorasi ham talabnomani rad etishdi, chunki “ixtirochi” sifatida sun’iy intellekt ko‘rsatilgan.

Boshqa davlat yurisdiksiyasidan farqli ravishda Janubiy Afrikada 2021-yil iyul oyida Kompaniyalar va Intellektual mulk komissiyasi (CIPC) DABUSni ixtirochi sifatida ro‘yxatga olingan patentni beradi³. Ta’kidlanganidek, Janubiy Afrika yuqorida aytib o‘tilgan boshqa yurisdiksiyalardan farq qiladi, chunki u “patent ekspertizasi tizimi”ga ega emas, bu orqali hukumat patent berishdan oldin patent talabnomasining afzalliklarini baholaydi. Meshandren Naidoo va Kristian E. Mammen ta’kidlaganidek, Janubiy Afrikada “rasmiy ekspertizada (shuningdek, ro‘yxatdan o‘tishga asoslangan tizim sifatida ham tanilgan) talab qilinadigan barcha ariza shakllari va to‘lovlar mavjud bo‘lsa, patent CIPC tomonidan beriladi⁴.

Yana bir yondashuv borki, unga ko‘ra, sun’iy intellekt yordamida yaratilgan ixtironi hammualliflikda qilingan deb hisbolash mumkin va ularni ixtirochi sifatida tan olishimizga to‘g‘ri kelsa ham⁵, qonunchilikda ularga shaxsiy huquqiy maqom berilmaganligi sababli inson kabi huquqlarga ega bo‘lolmaydi, aksicha yuridik shaxslarning maqomi kabi huquqlar beriladi.

Sun’iy intellektni ixtirochi deb tasniflash va patent himoyasi bilan ta’minlashga ruxsat berishning yana bir yondashuvi bu “rag‘batlantirish nazariyasi”ni amalga oshirishdir. Sun’iy intellekt inson kabi his-tuyg‘ularga ega bo‘lmasa ham, ya’ni bu rag‘batlantirish vositasidan o‘zlari foydalanmasa ham, u odamlarni patent himoyasi tufayli paydo bo‘ladigan foyda keltiradigan texnologiyalarni ishlab chiqarishga rag‘batlantirishi shubhasizdir. Biroq, ushbu nazariyada muammo shundaki, patentlar asosan ixtirochining huquqlarini himoya qilish va uning ixtirosiga bo‘lgan har qanday shakldagi huquqlarini hurmat qilish uchun taqdim etiladi, u boshqalar tomonidan uning roziligisiz foydalanishni oldini oladi⁶.

Shu sababli sun’iy intellekt yaratgan sanoat mulki obyektlarini boshqacha tarzda huquqiy tartibga solish usullariga qaraganda eng samaralisi – ularga hammualliflikni berishdir. Chunki mazkur texnologiya o‘z yaratgan ixtironi tijoratlashtirmaydi

¹ UK Court of Appeal says AI is not an Inventor & is split on allowing applications for AI inventions, <https://www.jdsupra.com/legalnews/uk-court-of-appeal-says-ai-is-not-an-8415189/>

² AI cannot be named as inventor on patent applications: written decision now available, <https://www.epo.org/news-events/news/2022/20220706.html>

³ DABUS Gets Its First Patent in South Africa Under Formalities Examination.

<https://ipwatchdog.com/2021/07/29/dabus-gets-first-patent-south-africa-formalities-examination/id=136116/>

⁴ Guest Post: DABUS Gains Traction: South Africa Becomes First Country to Recognize AI-Invented Patent, <https://patentlyo.com/patent/2021/08/traction-recognize-invented.html>

⁵ Ryan Abbot, I think, therefore I Invent: Creative Computers and the Future of Patent Law, 57 B.C.L. Rev. 1079, 1095 (2016).

⁶ Swapnil Tripathi and Chandni Ghatak. Artificial Intelligence and Intellectual Property Law, <https://doi.org/10.12728/culj.12.5>

hamda qilindan daromadni foydalana olmaydi. Shu bilan birgalikda, sun'iy intellekt doimiy ravishda dasturiy ta'minotga muhtoj hisoblanadi, buni esa uning hammualifi ta'minlab turishi eng yaxshi yo'l bo'ladi, bizningcha.

Bundan tashqari, sotuvchilar, tovarlar va xizmatlarni sotib oluvchilar dunyosida sun'iy intellektning o'rni oshib bormoqda. Tovar va xizmatlarning iste'molchisi sifatida insonlar ma'lum bir tovar yoki xizmatning bir turini boshqasidan sotib olishni tanlaydi. Shu tarzda, biz ko'pincha o'zimizga yoqadigan brendlarni ma'lum belgilar, belgilar jamlanmasi, so'zlar va boshqa shakllar bilan aniqlaymiz. Ushbu belgilar tovar belgilari sifatida ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin. Qoida tariqasida tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisi bu bir yuridik va jismoniy shaxslar tovarlari va xizmatlarini boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning shu turdagi tovarlaridan farqlash uchun xizmat qiladigan, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan belgilardir¹.

Butun jahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) ma'lumotlariga ko'ra "Tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish" ro'yxatdan o'tgan tovar belgisidan foydalanishga mutlaq huquq beradi. Bu shuni anglatadiki, tovar belgisi faqat uning egasi tomonidan ishlatilishi yoki to'lov evaziga foydalanish uchun boshqa tomonga litsenziyalanishi mumkin. Ro'yxatdan o'tish huquqiy ishonchni ta'minlaydi va huquq egasining pozitsiyasini mustahkamlaydi². Albatta, ulardan guvohnoma egasining ruxsatisiz foydalanish qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikni keltirib chiqaradi. Sun'iy intellekt qidirish, ro'yxatdan o'tkazish va boshqa jarayonlarni bajarish bilan bog'lik ma'muriy vazifalarni soddalashtirishda keng ravishda foydalanilmoqda.

Misol uchun, ular yordamida tovar belgisi egalari keng ko'lamli qidiruv jarayonlarini tahlil qilish orqali ro'yxatdan o'tish uchun potentsial tovar belgilarini qidirishlari va aniqlashlari mumkin. Sun'iy intellekt tovar belgilarini qidirishda, ularni tasniflashda ishlatilishi mumkin, bu yerda sun'iy intellekt algoritmlari tovar belgilari ilovalarida mavjud bo'lgan tovarlar va xizmatlar uchun sinflarni avtomatik ravishda tavsiya qilish uchun ishlatiladi³. Masalan, Avstraliyada ro'yxatga olish jurnali ommaviy tovar belgilarini qidirishni amalga oshirish uchun sun'iy intellektdan foydalanadi⁴.

Shuningdek, sun'iy intellekt o'xshash belgilarni aniqlashda ham muhim rol o'ynaydi. Ushbu amalyot ikki o'lchov bo'yicha o'xshashliklarni qidirish doirasini belgilaydi. Birinchidan, belgilar orasidagi konseptual o'xshashlikni aniqlaydi, buning uchun esa umumiy yoki teskari ma'nolar asosida baholash uchun algoritmlar ishlab

¹ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03/22/757/0181-son. <https://lex.uz/ru/docs/-24925>

² WIPO, Trademarks, <https://www.wipo.int/trademarks/en/>

³ Dev S. Gangjee, Eye, Robot: Artificial Intelligence and Trademark Registers (24 July 2020) https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=3467627

⁴ Alexander Butterman and others, Use of Artificial Intelligence by IP Registries (October 2019)

<https://www.inta.org/wp-content/uploads/public-files/advocacy/committee-reports/AI-Use-by-IP-Registries-Report_-10.18.2019.pdf>

chiqilgan. Masalan, oddiy matn qidiruvi suvning kimyoviy tarkibi, "H₂O" va "suv" o'rtasidagi semantik o'xshashlikni belgilamaydi. Biroq, semantik yoki konseptual o'xshashlikka asoslangan qidiruv texnologiyasi sinonimlar yoki antonimlarni va o'xshash ma'nolarga ega bo'lgan boshqa tilda taqqoslanadigan so'zlarni ko'rib chiqadi.

Ikkinchi o'xshashlikni taqqoslash – bu rasm qidirish bilan bog'liqdir. Texnologiya foydalanuvchilarga JPG va PNG kabi taniqli fayl formatlarida rasmlarni yuklash va tegishli ma'lumotlar bazasi reestrda o'xshash rasmlarni qidirish imkonini berdi.

Xarid qilish jarayoni iste'molchiga mavjud bo'lgan ma'lumotlar orqali o'zgarib turadi. Sun'iy intellekt iste'molchilar uchun mavjud bo'lgan ma'lumotlarga va ularning sotib olish qarorlariga ta'sir qiladi. Sun'iy intellekt tovar belgisi buzilishi va javobgarlik masalalari muhim ahamiyatga ega bo'lgan "o'rtacha iste'mol" uchun ta'sir qiladi. Agar sun'iy intellekt mahsulotni sotib olsa va bu jarayonda odamlarning o'zaro ta'siri kam yoki umuman bo'lmasa hamda tovar belgisining buzilishiga olib kelsa, kim yoki nima javobgar bo'ladi degan savol tug'iladi.

Sun'iy intellekt tomonidan tovar belgisining buzilishiga oid bir necha sud amalyoti sodir bo'lgan. Xususan, L'Oréal sud ishini misol sifatida ko'rib chiqishimiz mumkin. Ish holatlaridan ko'rinishicha, L'Oréal Buyuk Britaniyadagi bir nechta milliy tovar belgilari, shuningdek Yevropa Ittifoqidagi jamoaviy tovar belgilarga ega bo'lgan fransuz kosmetika kompaniyasi bo'ladi. Mazkur kompaniya tomonidan eBay elektron platformasida uning tovar belgilariga o'xshash bir nechta kontrafakt mahsulotlarni sotgilgani uchun sudga da'vo ariza bilan murojaat qiladi¹.

Ushbu kontrafakt mahsulotlar soni 17 tani tashkil etib, ular Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lmagan davlatlarda sotilgan. Mahsulotlarning 2 tasi L'Oréal tomonidan ro'yxatdan o'tkazilib, guvohoma olingan tovar belgisiga o'xshash bo'lgan. Qolganlari faqatgina Shimoliy Amerika mamlakatlariga sotish maqsadida e-Bay platformasiga joylashtirilgan.

Sud qaroriga ko'ra, e-Bay javobgarlikdan ozod qilinadi. Sud o'z fikrini quyidagicha izohlaydi. e-Bay axborot portal avtomatlashtirilgan tizim bo'lib, ya'ni sun'iy intellekt shunchaki vositachi sifatida harakat qiladi. U odatda mijoz-sotuvchilar tomonidan kiritilgan ma'lumotlarni qayta ishlashga moslashtirilgan va ba'zi hollarda, sotish uchun ba'zi takliflarni optimallashtirish yoki targ'ib qilishda yordam beradi. Shu nuqtayi nazardan, sud mazkur platformaning aybsiz deb hisoblaydi, chunki sotuvchilar L'Oréalning huquqlarini buzgan holda mahsulotlarni platformaga joylashtirgan.

¹ L'Oréal SA v. eBay International AG. <https://globalfreedomofexpression.columbia.edu/cases/loreal-sa-v-ebay-international-ag/>

XULOSA

Intellektual mulk huquqi ta'sirida sun'iy intellektning hozirgi holati muammoli hisoblanib turibdi, ammo bunda sun'iy intellekt tomonidan ishlab chiqarilgan intellektual mulk huquqi obyektlarini tan olish kelajakka qadamdir. Biroq, uni amalga oshirish haqiqiy muammodir. Buni yaxshilash uchun quyidagilar taklif qilinadi. Birinchidan, sun'iy intellektni tan olinishiga erishi lozim, jumladan ba'zi mamlakatlarda, Buyuk Britaniya va Yangi Zelandiya kabi davlatlarning qonunchilik tizimida hatto huquqiy asosi yaratilgan. Ikkinchidan, sun'iy intellekt bugungi kunda har bir sohada insonga o'xshash vazifalarni bajarmoqda. Kelajakda ular odamlarga qaraganda yaxshiroq vazifalarni bajarishlari va qarorlarini o'zlari qabul qilishlari kulgili bo'lmaydi. Xuddi shu narsani kuzatib borish uchun sun'iy intellektni tartibga soluvchi Qonunchilik tizimi, ya'ni sun'iy intellekt ma'lumotlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun ishlab chiqilishi kerak¹. Ushbu qonunda mazkur texnologiya tomonidan insoniyatga nisbatan sodir etilgan jinoiy va fuqarolik huquqbuzarliklari uchun javobgarlik belgilanishi mumkin. Ushbu qonun, shuningdek, sun'iy intellektning harakatlarini boshqarish va ular tomonidan sodir etilgan qonun buzilishlarni tartibga solish uchun normativ-huquqiy bazani yaratishni ta'minlashi mumkin. Uchinchidan, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan intellektual mulk huquqi obyektlariga mualliflik huquqini uni yaratgan shaxsga berish kerak. Bunda shaxsiy nomulkiy huquqlar sun'iy intellektning o'zida saqlanib qolinadi, biroq mulkiy huquqlar uning yaratuvchisi tomonidan yoki shartnoma asosida boshqa shaxslar tomonidan foydalanilishi mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Бозоров С. Sun'iy intellekt javobgarligining axloqiy va huquqiy taomillari //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 48-56.
2. Jeremy Cubert and Richard Bone, 'The law of intellectual property created by artificial intelligence', in Barfield
3. and Pagallo (n 3) 415.
4. WIPO, 'WIPO Technology Trends 2019: Artificial Intelligence' (Geneva 2019) 13.
5. Anke Moerland and Conrado Freitas, 'Artificial Intelligence and Trademark Assessment' in Jyh-An Lee, Reto Hilty, and Kung-Chung Liu, Artificial Intelligence and Intellectual Property (OUP 2021); WIPO, 'WIPO Index of AI initiatives in IP offices' (2021) www.wipo.int/about-ip/en/artificial_intelligence/search.jsp accessed 23/02/2022.

¹ Artificial Intelligence Poses a Greater Risk to IP than Humans to, TECHCRUNCH(Dec. 31, 2015), <https://techcrunch.com/2015/12/31/artificial-intelligence-poses-a-greater-risk-to-ip-than-humans-do/>.

6. Artificial Intelligence, ENG. OXFORD LIVING DICTIONARIES, https://en.oxforddictionaries.com/definition/artificial_intelligence [https://perma.cc/WF9V-YM7C] (last visited Feb. 27, 2019); see STUART J. RUSSELL & PETER NORVIG, ARTIFICIAL INTELLIGENCE: A MODERN APPROACH 1 (3rd ed. 2010).
7. Ayers JW, Poliak A, Dredze M, et al. Comparing Physician and Artificial Intelligence Chatbot Responses to Patient Questions Posted to a Public Social Media Forum. JAMA Intern Med. Published online April 28, 2023. doi:10.1001/jamainternmed.2023.1838
8. Бозоров С. Sun'iy intellekt javobgarligining axloqiy va huquqiy taomillari //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 48-56.
9. Arkhipov, V., Naumov, V. – P. 164.
10. Winkler A. We the Corporations: How American Businesses Won Their Civil Rights. Liverlight, 2018. See a description here: [Ошибка! Недопустимый объект гиперссылки.](#)
11. Drexl (n 17) 4. https://www.jipitec.eu/issues/jipitec-8-4-2017/4636/JIPITEC_8_4_2017_257_Drexl
12. https://www.wipo.int/wipo_magazine/en/2017/05/article_0003.html
13. The first pop song ever written by artificial intelligence is pretty good, actually. <https://qz.com/790523/daddys-car-the-first-song-ever-written-by-artificial-intelligence-is-actually-pretty-good>
14. Julia Gregory, Press Association Wins Google Grant to Run News Service Written by Computers (6 July. 2017) available at accessed 3rd October, 2021.
15. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 21.08.2021-y., 03/21/709/0808-son <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>
16. copyright law. <https://dejure.org/gesetze/UrhG/8.html>
17. Feist Publications, Inc. v. Rural Tel. Serv. Co., 499 U.S. 340 (1991). <https://supreme.justia.com/cases/federal/us/499/340/#344>
18. Acohs Pty Ltd v Ucorp Pty Ltd [2012] FCAFC 16 (2 March 2012). <http://www8.austlii.edu.au/cgi-bin/viewdoc/au/cases/cth/FCAFC/2012/16.html>
19. UK copyright law, section 9(3) of the Copyright, Designs and Patents Act (CDPA). <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1988/48/section/9>
20. Patents, WORLD INTELLECTUAL PROPERTY ORGANIZATION, <http://www.wipo.int/patents/en/>
21. Patent Protection – UNHinnovation, UNIVERSITY OF NEW HAMPSHIRE, <http://innovation.unh.edu/patent-protection>.

24. “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi qonun 5-moddasi, <https://lex.uz/docs/-76671>
25. Liza Vertinsky & Todd M. Rice, Thinking about Thinking Machines: Implications for Machine Inventors For Patent Law, *B. U. J SCI. & TECH L.* 82 (2002), <http://www.bu.edu/law/journals-archive/scitech/volume82/vertinsky&rice.pdf>.
26. Consolidated Patent Laws, § 100 (f), U.S.C 35, https://www.uspto.gov/web/offices/pac/mpep/consolidated_laws.pdf.
27. Angela Chena. Can an AI be an inventor? Not yet. <https://www.technologyreview.com/2020/01/08/102298/ai-inventor-patent-dabus-intellectual-property-uk-european-patent-office-law/>
28. Asid MOHAMAD, individually and for the Estate of Azzam Rahim, Deceased, et al., Petitioners
29. v. PALESTINIAN AUTHORITY et al. https://scholar.google.com/scholar_case?case=8123691441658588112
30. UK Court of Appeal says AI is not an Inventor & is split on allowing applications for AI inventions, <https://www.jdsupra.com/legalnews/uk-court-of-appeal-says-ai-is-not-an-8415189/>
31. AI cannot be named as inventor on patent applications: written decision now available, <https://www.epo.org/news-events/news/2022/20220706.html>
32. DABUS Gets Its First Patent in South Africa Under Formalities Examination. <https://ipwatchdog.com/2021/07/29/dabus-gets-first-patent-south-africa-formalities-examination/id=136116/>
33. Guest Post: DABUS Gains Traction: South Africa Becomes First Country to Recognize AI-Invented Patent, <https://patentlyo.com/patent/2021/08/traction-recognize-invented.html>
34. Ryan Abbot, I think, therefore I Invent: Creative Computers and the Future of Patent Law, *57 B.C.L. Rev.* 1079, 1095 (2016).
35. Swapnil Tripathi and Chandni Ghatak. Artificial Intelligence and Intellectual Property Law, <https://doi.org/10.12728/culj.12.5>
36. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03/22/757/0181-son. <https://lex.uz/ru/docs/-24925>
37. WIPO, Trademarks, <https://www.wipo.int/trademarks/en/>
38. Dev S. Gangjee, Eye, Robot: Artificial Intelligence and Trademark Registers (24 July 2020) https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?ABSTRACT_id=3467627
39. Alexander Butterman and others, Use of Artificial Intelligence by IP Registries (October 2019) <https://www.inta.org/wp-content/uploads/public-files/advocacy/committee-reports/AI-Use-by-IP-Registries-Report_-10.18.2019.pdf >

40. L'Oréal SA v. eBay International AG.
<https://globalfreedomofexpression.columbia.edu/cases/loreal-sa-v-ebay-international-ag/>

41. Artificial Intelligence Poses a Greater Risk to IP than Humans to, TECHCRUNCH(Dec. 31, 2015), <https://techcrunch.com/2015/12/31/artificial-intelligence-poses-a-greater-risk-to-ip-than-humans-do/>.